

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермакбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayansh doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Difuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildivich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



MINTAQA IQTISODIYOTIGA KIRITILAYOTGAN XORIJIY INVESTITSİYALAR STATISTIK TAHLILI

Xatamov Nurbek Ochildiyevich

Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar tavsiflovchi statistik (Descriptive Statistics) tahlilini amalga oshirilgan. Mazkur tahlil natijasida viloyat tumanlarining xorijiy investitsiyalar jalb qilishdagi imkoniyatlari baholangan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, tavsiflovchi statistika, asosiy kapital, o'rtacha mediana, moda.

Аннотация: В данной статье был проведен описательно-статистический (Descriptive Statistics) анализ иностранных инвестиций в экономику Сурхандарьинской области. В результате данного анализа оценен потенциал региональных округов в привлечении иностранных инвестиций.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, описательная статистика, основной капитал, средний, медиана, мода.

Abstract: In this article, the descriptive statistics analysis of foreign investments in the economy of Surkhondaryo region was carried out. In this analysis, the potential of regional districts in attracting foreign investments was evaluated.

Key words: foreign investments, descriptive statistics, fixed capital, average, median, mode.

KIRISH

Har qanday mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirishda investitsiyalarning o'rni salmoqli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022-yilda: «Keng ko'lamli va samarali islohotlarimiz natijasida, yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard dollardan oshdi (2018 yilda 52 milliard dollar bo'lgan).

Iqtisodiyotimizga shu yilning o'zida 8 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksportimiz esa, 19 milliard dollarga yetdi (2018 yilda 14 milliard dollar bo'lgan).¹, deya ta'kidlagan edi. Iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko'paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilash natijasida joriy yilda qariyb 30 milliard dollar sarmoya jalb qilish rejalashtirilganligiga to'xtab o'tgan edi. Bu esa umumiy qiymati 8 milliard dollarlik 300 dan ziyod loyihani ishga tushirish va yana 40 ta yangi yirik loyiha boshlanishiga imkon beradi^[1].

Milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligidagi mavqeini mustahkamlash, milliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozoridagi raqobatbardoshlik darajasini yanada ko'tarish, sanoatning texnik tarkibini zamonaviylashtirish muammolari ham davlat siyosatining boshqa dastaklari qatorida investitsion siyosat orqali hal qilinadi.

Investitsiya siyosati har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi va unda ishlab chiqarishni kengaytirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biridir. Shunday ekan, milliy iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirish faol investitsiya siyosatini yurgizishni talab etadi. Bu o'z navbatida, respublikada chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot sohalariga tashqi va ichki investitsiyalar oqimini faollashtirish iqtisodiy yuksalishning yangi bosqichini boshlab beradigan asosiy omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijlik olimlardan Sharp U., G.Aleksander, Dj.Beyli, Lorens Dj.Gitman, Maykl D.Djonk, K.R.Mak-konnel va S.L.Bryu va MDX davlatlarida Ye.V.Mixaylova, N.D.Guskova, I.N.Kravovskaya, Yu.Yu.Slushkina,

1 Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил учун Мурожаатномаси. // <https://review.uz/oz/post/oz-bekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>.



V.I.Makolev, O.S.Suxarev, S.V.Shmanev kabilar investitsiya, investitsion muhitini yaxshilash, investitsiyadan samarali foydalanish usullari, iqtisodiyot tarmoqlarida investitsiya oqimini boshqarishning nazariy jihatlarini, tarmoqlarni rivojlantirishga investitsiyalar jalb etish muammolari bo'yicha ish olib borganlar.

Mamlakatimiz iqtisodchilimlaridan A.Sh.Bekmurodov, Ya.K.Karrieva, I.U.Nematov, D.H.Nabiev, N.T.Kattaev, A.Vaxabov, Sh.Xajibakiev, N.Muminov, J.R.Hoshimov, S.K.Jumaeva, J. J.Jamolov, F.G'anieva, F.U.Nazarova ilmiy tadqiqotlari xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy-uslubiy asoslari, mazkur jarayonni tashkil etish bo'yicha xorij tajribalariga bag'ishlangan.

Jumladan, A.Sh.Bekmurodov, Ya.K.Karrieva, I.U.Nematov, D.H.Nabiev, N.T.Kattaevlar ishida globallashuv hamda iqtisodiy integratsiyallashuv kuchayib borishida investitsiya jarayonlari, xorijiy investorlar huquqiy holatining o'ziga xos xususiyatlari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy - uslubiy asoslari hamda ularni jalb qilishni rag'batlantirishning zamonaviy shakl va usullari, xorijiy investorlar uchun O'zbekiston iqtisodiyotini jalb qiluvchanligini oshirishning asosiy yo'nalishlari, mamlakatda tashqi iqtisodiy faoliyatni xorijiy investitsiyalar yordamida rivojlantirish masalalari, xorijiy investitsiyalarni iqtisodiy samaradorligini aniqlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni sug'urtalash masalalari atroflicha yoritib berilgan [2].

Iqtisodchi-olimlardan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiev, N.Muminovlar investitsiya muhiti to'g'risida quyidagilarni ta'kidlab o'tadilar: "Investitsiya muhiti xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir. Investitsiya muhiti kompleks, ko'p qirrali tushuncha bo'lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o'sish, stagnatsiya), bojxona rejimi, valyuta siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflatsiya sur'atlari, valyuta kursining barqarorligi, tashqi qarzdorlik darajasi kabi ko'rsatkichlarga ega" [3] degan fikrni bildirishadi.

J.R.Hoshimov tadqiqotlarida iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha xorijiy mamlakatlar (AQSh, Xitoy, Singapur) tajribalari o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirish borasida ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari yoritilgan [4, 5]. S.K.Jumaeva, Sh.S.Jumaeva ilmiy tadqiqotlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha nisbatan qisqa davr mobaynida iqtisodiy rivojlanishda ulkan natijalarga erishgan rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar tajribasi tadqiq etilgan. Jahonning rivojlangan davlatlaridan farqli ravishda, bu mamlakatlar tajribasi shunisi bilan qiziqish uyg'otadiki, ular avvalda rivojlanish darajasi bo'yicha O'zbekistonga yaqin bo'lgan holda investitsiya siyosatini amalga oshirish oqibatida katta natijalarga erishganlar [6].

J. J. Jamolov esa, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish yo'llarini takomillashtirish bilan bog'liq jarayonlarini tahlil etgan. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni mamlakat investitsion faoliyat samaradorligiga ta'sirini baholab, ularni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish doirasida mavjud kamchiliklar aniqlangan [7].

F.G'anieva tadqiqotlarida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalar, jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, bugungi iqtisodiyotning globallashuv jarayonlarida mamlakatda iqtisodiy o'cishni jadallashtirish, aholi turmush farovonligini oshirib borish – jahon bozoriga chiqish, uning ustunliklaridan foydalanishni talab qilayotgan bir davrda jahon bozorida amal qilish va xalqaro iqtisodiy munosabatlarni muvaffaqiyatli olib borish, ichki va tashqi bozorda milliy tovarlar raqobatbardoshligini oshirish uchun turli ko'rinishdagi xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish zaruriyati asoslangan [8].

F.U.Nazarova ilmiy tadqiqotlarida O'zbekiston investitsion faoliyati dinamikasi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning shakllanish manbalarida yuz berayotgan o'zgarishlar, investitsion faoliyatni takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan [9]. Ammo yuqoridagi ishlarda mintaq darajasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayoni yetarli darajada iqtisodiy-statistik tahlil etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Statistik tahlilni amalga oshirar ekanmiz oldimizga qo'yiladigan asosiy vazifalaridan biri faqatgina umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni (o'rtachalarni) hisoblash bilan cheklanmasdan, balki to'plam birliklarining o'rtachadan tafovutini, farqini, chetlanishini ham o'rganishdir. Mazkur tahlilni statistikaning tavsiflovchi ko'rsatkichlari

yordamida bajarish mumkin [10]. Jumladan, arifmetik o'rtacha: $\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n X_i$ formula bilan hisoblanadi.

Har bir variantning to'plamda necha bor uchrashuvini ko'rsatuvchi absolyut miqdorga chastota, shastotaning nisbiy ko'rinishi chastota ulushi deyiladi va

$$w_i = \frac{m_i}{\sum_{i=1}^n m_i}, \quad \sum_{i=1}^n w_i = 1, \quad \sum_{i=1}^n w_i \cdot 100 = 100\% \text{ quyidagi ko'rinishda hisoblanadi.}$$



Variatsiya chegarasiga variatsion qatorning ekstremal qiymatlari farqiga, $R = X_{\max} - X_{\min}$ aytiladi.

O'rtacha chiziqli farq (ρ) esa, $\rho = \frac{\sum |X - \bar{X}|}{n}$ yoki $\rho = \frac{\sum |X - \bar{X}| \cdot m}{\sum m}$ formulalar bilan hisoblanadi.

Variantlarning arifmetik o'rtachadan farqlarining o'rtacha kvadrati dispersiya (σ^2) deyiladi va $\sigma^2 = \frac{\sum (X - \bar{X})^2}{n}$ yoki $\sigma^2 = \frac{\sum (X - \bar{X})^2 \cdot m}{\sum m}$ formulalar bilan topiladi. Moda M_0 deb eng katta chastotaga

ega bo'lgan variantga aytiladi. Mediana M_e , deb variatsion qatorni variantalar soni teng bo'lgan ikki qismga ajratadigan variantga aytiladi. Agar variantalar soni toq, ya'ni $n = 2k + 1$, bo'lsa, u holda; n juft, ya'ni $n = 2k$

da mediana $M_e = \frac{X_k + X_{k+1}}{2}$ formula yordamida hisoblanadi. Normal taqsimot deb $f(x) = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{(x-a)^2}{2\sigma^2}}$

differensial funksiya bilan tavsiflanadigan uzluksiz tasodifiy miqdor taqsimotiga aytiladi (a - normal taqsimotning matematik kutilishi, σ - o'rtacha kvadratik chetlanishi).

Nazariy taqsimot assimetriyasi deb uchinchi tartibli markaziy momentning o'rta kvadratik chetlanish kubi nisbatiga aytiladi va $A_s = \frac{\mu_3}{\sigma^3}$ formula bilan nazariy taqsimot ekstsesi deb $E_k = \frac{\mu_4}{\sigma^4} - 3$ tenglik bilan aniqladigan xarakteristikaga aytiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Statistikadan ma'lumki, tavsiflovchi statistik (Descriptive Statistics) tahlilini amalga oshirish va bu orqali tasodifan ro'y berishi mumkin bo'lgan guruhlar orasidagi farqning ishonchli ekanligi ehtimolini baholashdan xulosa chiqarish imkonini beradi. Mazkur tahlildan umumiy sharoitlar haqida xulosa chiqarish va olingan ma'lumotlarda nima bo'layotganini tasvirlash uchun foydalaniladi. Bundan tashqari, tavsiflovchi statistik tahlil bizga katta hajmdagi ma'lumotlarni soddalashtirishga yordam beradi va har bir tavsiflovchi statistik tahlil ko'plab ma'lumotlarni oddiy xulosaga qisqartiradi. Tavsiflovchi statistik tahlilning ushbu xususiyatidan kelib chiqib. Surxondaryo viloyatining asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlari statistik ma'lumotlaridan, dastlab Surxondaryo viloyatining tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarini tahlil qilamiz (1-jadval).

1-jadval: Surxondaryo viloyatining tumanlarining 2010-2023 yillardagi asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarining deskriptiv tahlili²

Ko'rsatkichlar	Surxondaryo tumanlarining ko'rsatkichlar bo'yicha o'rtacha qiymati	Ko'rsatkichlar o'rtacha qiymatidan past tumanlar soni	Ko'rsatkichlar o'rtacha qiymatidan yuqori tumanlar soni	Ko'rsatkichlar o'rtacha qiymatining yarmidan past tumanlar soni
O'rtacha qiymat	145,3786609	11	3	2
Standart xato	58,16522555	12	2	2
Mediana	24,57473158	10	4	2
Moda	Moda kuzatilmadi			
Standart og'ish	217,6343458	12	2	2
Dispersiya	182220,8249	13	1	7
Ekssess	1,514555751	8	6	8
Asimmetriklik	1,508514357	8	6	2
Interval	692,6358196	12	2	1
Minimum	37,7	9	5	1
Maksimum	1207,0	9	5	1
Summa	4815,8	8	6	1


² Stata dasturi natijalari asosida muallif ishlanmasi



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, o'zgaruvchining tavsiflashning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo'lgan chastotani taqsimlashga e'tibor qaratilgan bo'lib, chastotalarni taqsimlashda ikki qism (ya'ni o'rtacha qiymatdan yuqori va past miqdorlar) bo'yicha ko'rib chiqildi.

Ta'kidlash joizki, biz taqsimlashda yana bir jihatga e'tibor qaratdik (o'rtacha qiymatning yarmidan past) bu bizga ko'rsatkichlarning ichida eng pastlarini aniqlashga yordam beradi. Taqsimlashlarni foizlar hisobi yordamida ham ko'rsatilishi mumkin. Unga ko'ra, o'rtacha yoki mediana, markaziy tendensiyani ehtimoliy tavsiflashda eng ko'p ishlatiladigan qiymatlar bo'lib, jadvalda tumanlar o'rtasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarining o'rtacha qiymatidan yuqori tumanlar soni 3 ta, (Boysun(926,64 mlrd. so'm), Termiz shahar (186,90 mlrd. so'm), Sariosiyo (178,09 mlrd. so'm) va mediana bo'yicha o'rtacha qiymatidan yuqori tumanlar soni esa 4 ta, (Boysun(97,70 mlrd. so'm), Termiz shahar (83,86 mlrd. so'm), Termiz(55,01 mlrd. so'm), Sherabod (28,78 mlrd. so'm), bu ikkala ko'rsatkich bo'yicha faqat medianada Termiz tuman va Sherabod tumanlari farq qiladigan bo'lsa, ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatidan past tumanlar (Termiz(138,3 mlrd. so'm), Sherabod (108,3 mlrd. so'm), Denov(104,7 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (77,9 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on(62,4 mlrd. so'm), Muzrabot (61,4 mlrd. so'm), Angor(50,8 mlrd. so'm), Sho'rchi (42,7 mlrd. so'm), Uzun(33,3 mlrd. so'm), Qiziriq (32,8 mlrd. so'm), va Oltinsoy(31,1 mlrd. so'm) tumanlari, mediana bo'yicha o'rtacha qiymatidan past tumanlar Jarqo'rg'on (22,2 mlrd. so'm), Angor (17,9 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (12,7 mlrd. so'm), Qiziriq(5,9 mlrd. so'm), Muzrabot (5,4 mlrd. so'm), Denov (5,2 mlrd. so'm), Sariosiyo (4,6 mlrd. so'm), Oltinsoy (2,4 mlrd. so'm), Sho'rchi (2,0 mlrd. so'm) va Uzun (0,5 mlrd. so'm) tumanlari) qiymatlarini ko'rish mumkin.

O'rtacha va mediana qiymatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak(1-rasm), o'rtachaning yarmidan past qiymatlarda 1 ta-Oltinsoy (31,1 mlrd. so'm), medianada ham o'rtachaning yarmidan past qiymatlarda 1 ta-Uzun (0,5 mlrd. so'm), tumanini ko'rishimiz mumkin.



1-rasm: Surxondaryo viloyatida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlari o'zgarishini deskriptiv tahlili grafigi³.

Ushbu qatorlarda moda kuzatilmadi ammo tumanlar ichida Termiz va Sherobod tumanlari tahlilimiz natijasida o'rtacha va mediana ko'rsatkichlarining o'rtachasining yuqori va past qiymatlarida ko'tarilib yoki pasayib turganligini ko'rish mumkin. Bu kuzatilayotgan statistik qatorlar uchun o'rtacha, mediana va modalarni deyarli bir-biriga tengligida normal taqsimot(ya'ni qo'ng'iroq shaklida bo'lsa) kuzatilishini e'tiborga oladigan bo'lsak, bunday holat viloyat tumanlarining notekis rivojlanayotganligidan dalolat beradi va qolgan ko'rsatkichlarni tahlil qilish shart emasligini ifoda etadi (2-jadval).

3 Manba. Stata dasturi natijalari asosida olingan natijalar



2-jadval: Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlari o'zgarishini deskriptiv tahlil jadvali.

	Srednee	Standartnaya oshibka	Mediana	Moda	Standartnoe otклонenie	Dispersiya vyiborki	Eksness	Asimmetrichnost	Interval	Minimum	Maksimum	Summa	Uroven nadejnosti(95,0%)
Termiz sh.	186,9	52,5	83,9		196,3	38547,8	-0,8	0,9	522,6	13,1	535,7	2616,7	113,4
Oltinsoy	31,1	13,0	2,4		48,8	2380,5	-0,5	1,2	129,0	0,0	129,0	435,2	28,2
Angor	50,8	24,0	17,7		89,7	8052,2	6,4	2,6	316,8	1,7	318,5	711,4	51,8
Boysun	926,6	407,4	97,7		1524,3	2323372,0	3,9	2,0	5134,6	5,2	5139,8	12973,0	880,1
Denov	104,7	46,8	5,2		175,0	30608,3	2,0	1,7	544,3	0,6	544,9	1466,3	101,0
Jarqurg'on	77,9	27,5	22,2		103,0	10599,4	3,0	1,7	353,1	2,1	355,2	1090,6	59,4
Qiziriq	32,8	14,5	5,9		54,3	2950,3	3,4	1,9	180,5	0,0	180,5	459,2	31,4
Qumqurg'on	62,4	24,6	12,7		92,2	8494,9	3,0	1,8	306,2	1,1	307,3	873,8	53,2
Muzrabot	61,4	24,6	5,4		92,1	8476,4	1,2	1,5	281,9	0,0	281,9	859,2	53,2
Sariosiyo	178,1	68,8	4,6		257,5	66302,3	0,1	1,2	740,2	0,0	740,2	2493,4	148,7
Termiz	138,3	41,9	55,0		156,7	24545,2	-0,8	1,0	445,1	2,2	447,4	1935,5	90,5
Uzun	33,3	13,3	0,5		49,7	2468,6	-0,4	1,1	131,1	0,0	131,1	466,4	28,7
Sherobod	108,3	37,7	28,8		141,0	19873,0	0,5	1,2	436,3	0,1	436,4	1516,0	81,4
Sho'rchi	42,7	17,8	2,0		66,5	4420,0	0,0	1,3	175,3	0,0	175,3	597,6	38,4

o'rtachadan yuqori

o'rtachadan past

Bu esa jadvalda ko'rinib turganidek, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar va xorijiy investitsiyalar hajmiga nisbatan viloyatning ko'pgina tumanlarida buning ijobiy yechimlarini ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar va xorijiy investitsiyalarining o'rtacha va mediana ko'rsatkichlar bo'yicha ham yuqori bo'lgan Termiz shahar, Boysun, Termiz, Sherobod tumanlari barqarordir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqada xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish bo'yicha qator ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish natijalari quyidagi xulosa va takliflarni shakllantirish imkonini berdi:

- hududlar iqtisodiy-ijtimoiy tizimida amalga oshirilayotga islohotlar ichki rivojlanish sharoitlari va global o'zgarishlarga qarab bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak, chunki iqtisodiy muvaffaqiyat uchun universal qoidalar mavjud emas;
- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati samaradorligining asosiy ko'rsatkichi sifatida hududning eksport hajmini olish lozim, u jahon bozorida parallel ravishda mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligi qanchalik o'zgarayotganini aks ettiradi;
- mintaqaning xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati manzilli bo'lishi va qabul qiluvchi hudud uchun faqat ustuvor tarmoqlar uchun yaxshi sharoitlarni yaratishni ko'zlashi zarur;
- sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribalariga tayanilsa, investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga sarflangan har bir dollari milliy iqtisodiyotga to'rt dollarlik samara berishi mumkin. Albatta, bu yerda u yoki bu hududga aniq yo'naltirilgan, muayyan salohiyatli investorga mo'ljallab ishlab chiqilgan va faol marketing strategiyasiga ega bo'lgan investitsiyalar eng samarali hisoblanadi;
- soliq ta'tillari va boshqa turdagi imtiyozlar asosan texnologiya, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar bilan bog'liq yuqori texnologiyali fan sig'imkorligiga ega bo'lgan biznes uchun e'lon qilingani ma'qul;
- xorijiy investitsiyalar uchun mintaqada investitsion muhitini yaxshilash nafaqat mehnat bozori, soliq, moliya, valyuta va ma'muriy xizmatlar, balki ta'lim, uy-joy, tibbiy xizmat, transport, madaniyat, kirish va chiqish jarayonlari va boshqa sohalardagi har qanday to'siqlarni bartaraf etishni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил учун Мурожаатномаси. // <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>
2. Бекмуродов А.Ш., Карриева Я.К., Нематов И.У., Набиев Д.Х., Каттаев Н.Т. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма.- Т.: Иқтисодиёт, 2010.-166 б.
3. Вахабов А.В., Хайбакйев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий investitsiyalar. O'quv qo'llanma.-Т.: Moliya, 2010.-153 б.
4. Ҳошимов Ж.Р. Иқтисодиётга хорижий инвестицияларни жалб қилишда АҚШ ва Хитой тажрибаси.// Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 5-son, 363-369 б.
5. Hoshimov J.R. Investitsion muhit jozibadorligini oshirishda xitoy va singapur tajribasi // Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 2-son, 369-373 betlar.
6. Жумаева С.К., Жумаева Ш.С. Минтақалар иқтисодиётига инвестицияларни жалб қилиш ва улардан самарали фойдаланиш бўйича хорижий мамлакатлар тажрибаси.// Иқтисод ва молия, 2013, №8,11-16 бетлар.
7. Жамолов Ж. Ж. Ўзбекистон иқтисодиётига хорижий инвестицияларни жалб қилиш ва улардан самарали фойдаланиш йўллари // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 1/2022,yanvar-fevral (№ 00057), 89-98 бетлар.
8. Ғаниева Ф. Иқтисодиётда хорижий инвестицияларнинг аҳамияти. // Иқтисод ва молия, 2012, №2,13-16 бетлар.
9. Назарова Ф.У. Ўзбекистон инвестицион фаолиятининг асосий йўналишлари. // Иқтисод ва молия, 2015, №6,41-47 бетлар.
10. Gujarati D.N. Basic Yeconometrics. McGraw-Hill, 4th yedition, 2003 (Gu),Inc.1027 p.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

